


*Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi*

# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI

2019 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 2106,2 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 105,4 foizni, shu jumladan dehqonchilik va chorvachilik ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar 1968,7 mlrd.so'mni (105,2 foiz), o'rmon xo'jaligida 91,7 mlrd.so'mni (105,4 foiz), baliqchilik xo'jaligida 45,7 mlrd.so'mni (118,0 foiz) tashkil qildi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o'sishi asosan chorvachilik, baliq, o'rmon va ushbu sohada ko'rsatilgan xizmatlar hajmining sezilarli darajada oshishi bilan izohlanadi.

Xususan yuqori o'sish sur'atlari To'rtko'l (114,9 foiz), Nukus shaxrida (114,0 foiz), Qanliko'l (108,5 foiz) tumanlarida kuzatildi, Ellikqal'a (101,6 foiz), Kegeyli (101,5 foiz) tumanlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.

**Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi**




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Amudaryo tumanining ulushi 16,3 foizni, To'rtko'l 13,0 foiz, Beruniy va Ellikqal'a tumanlari mos ravishda 11,8 foiz va 10,4 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush Nukus shahrida 0,6 foiz qayd etildi.

# QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

**Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi mahsulot (xizmatlar)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi**




## Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmining 2018 yilning mos davriga nisbatan o‘sishi 105,5 foizni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari – 116,2 foizni, chorvachilik mahsulotlari–101,2 foizni tashkil qildi.

Xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlillar, qishloq xo‘jaligi mahsulotlar umumiy hajmining 80,2 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo‘jaliklariga, 18,1 foizi – fermer xo‘jaliklariga, 1,7 foizi – qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha taqsimlanishi**



# QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQ XO‘JALIGI

**Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha hududlar kesimida taqsimlanishi**






**Dehqonchilik:** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 584,3 mlrd.so‘mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 116,2 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 29,8 fozni tashkil qildi.

**Hosilni yig’ib olish:** Joriy yilning yanvar–iyun oylarida 147195 tonna ja’mi don mahsulotlar (122,3 foiz), 23424 tonna kartoshka 107,9 foiz), 41449 tonna sabzavot (117,5 foiz), 5466 tonna palız (121,7 foiz), 8382 tonna meva (102,5 foiz) va 216 tonna uzum (126,3 foiz) mahsulotlari yig’ib olindi.

**2019 yilning yanvar- iyunida xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish**

| | Fermer xo'jaliklari | | Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | | Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *tonna* | o'*sish surati, foizda* | *tonna* | o'*sish surati, foizda* | *tonna* | o'*sish surati, foizda* |
| Jami don mahsulotlari | 111359 | 137,7 | 33822 | 87,5 | 2014 | 2,3m |
| Kartoshka | 3799 | 172,7 | 19556 | 100,5 | 69 | 115,0 |
| Sabzavot | 10038 | 191,9 | 30039 | 102,0 | 1372 | 2,4 m |
| Palız | 2187 | 177,9 | 3247 | 100,4 | 32 | 123,1 |
| Meva | 1833 | 100,9 | 6355 | 102,7 | 194 | 111,5 |
| Uzum | 55 | 3,2 m | 149 | 104,2 | 12 | 109,1 |

# QISHLOQ, O'RMON VA BALIQ XO'JALIGI



**Chorvachilik:** 2019 yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 1374,9 mlrd.so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 101,2 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy xajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 70,2 foizni tashkil etdi.

Barcha toifadagi xo'jaliklarda chorvachilik mahsulotlarining ko'payishi go'sht ishlab chiqarish hajmining – 0,9 foizga, sut – 2,8 foizga, tuxum – 7,1 foizga o'sishi bilan izohlanadi.

2019 yilning yanvar- iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 37,9 ming tonna go'sht, 120,3 ming tonna sut, 163 mln.dona tuxum, 71708 dona qorako'l teri mahsulotlari ishlab chiqarildi



**Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi**




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 95,9 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 91,0 foizi, tuxumning 87,1 foizi, qorako'l terining 94,8 foizi va dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

**2019 yil yanvar- iyun oylarida ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari**

| | *miqdori* | o'*sish surati, %* |
|---|---|---|
| **Go'sht (tirik vaznda), *ming tn.*** | **37,9** | **100,9** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 1,3 | 116,8 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 36,3 | 100,4 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 0,3 | 98,5 |
| **Sut, *ming tn.*** | **120,3** | **102,8** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 9,5 | 137,8 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 109,5 | 100,6 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 1,3 | 105,4 |
| **Tuxum, *mln. dona*** | **163** | **107,1** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 10,8 | 132,4 |
| Dehqon (aholining shaxsiyyordamchi) xo'jaliklari | 142 | 101,2 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 10,2 | 2,6 m |

**Yirik shoxli qoramollar va**
**parrandalar bosh soni**

Joriy yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1076,1 ming boshga, shu jumladan sigirlar 312,0 ming boshga, qo‘y va echkilar 1107,6 ming boshga, otlar 23961 parrandalar 4277,2 ming boshga yetdi.

2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo‘jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 4,5 ming boshga (0,4 foizga), shu jumladan sigirlar 1,7 ming boshga (0,5 foizga), qo‘y va echkilar 31,7 ming boshga (2,9 foizga), parrandalar 0,3 mln boshga (6,7 foizga) ko‘paydi.

2019 yilning 1 iyul holatiga yirik shohli qora mollar bosh soni to’g’risidagi ma’lumotlarni xo’jalik toifalari bo’yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,5 foizi fermer xo’jaliklari hissasiga, 94,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo’jaliklariga, 0,8 foizi qishloq xo’jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to’g’ri kelishini qayd etib o’tish lozim, shunga mos ravishda qo’y va echkilarning umumyiy sonidan 10,2 foizi fermer xo’jaliklariga, 88,6 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo’jaliklariga, 1,2 foizi qishloq xo’jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to’g’ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 6,2 foizi fermer xo’jaliklariga, 88,7 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo’jaliklariga, 5,1 foizi qishloq xo’jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to’g’ri keladi.

**2019 yil 1 iyul holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni**

| | *ming bosh* | o’*sish surati, %* |
|---|---|---|
| **Yirik shoxli qoramol** | **1076,1** | **100,4** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo’jaliklari | 48 | 105,3 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo’jaliklari | 1019,4 | 100,1 |
| Qishloq xo’jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 8,7 | 108,9 |
| **ulardan sigirlar** | **312,0** | **100,5** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo’jaliklari | 15,5 | 105,2 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo’jaliklari | 293,8 | 100,2 |
| Qishloq xo’jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 2,7 | 110,0 |
| **Qo’y va echkilar** | **1107,6** | **102,9** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo’jaliklari | 112,5 | 116,7 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo’jaliklari | 981,4 | 103,1 |
| Qishloq xo’jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 13,7 | 49,9 |
| **Otlar** | **24,0** | **104,1** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo’jaliklari | 4,5 | 123,7 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo’jaliklari | 19,0 | 100,2 |
| Qishloq xo’jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 0,5 | 106,7 |

| | ming bosh | o'sish surati, % |
|---|---|---|
| **Parrandalar** | **4277,2** | **106,7** |
| *shu jumladan:* | | |
| Fermer xo'jaliklari | 265,8 | 120,7 |
| Dehqon (aholining shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari | 3791,8 | 104,9 |
| Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | 219,6 | 126,9 |

**Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi**
**Qishloq xo'jaligi va ekologiya statistikasi bo'limi**
Nashr uchun mas'ul: **N. Madreymov**
(61) 222-76-07